
The Impact of Mobile-Assisted Language Learning (MALL) on Developing Reading Skills of EFL Learners: A Literature Review

Sadiyeva Shahnoza Komilovna
shakhnozasadiyeva@gmail.com
Doctoral Researcher (PhD Candidate),
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *In recent years, the rapid development of mobile technologies has significantly influenced the process of language learning, and Mobile-Assisted Language Learning (MALL) has emerged as an important pedagogical approach within the EFL (English as a Foreign Language) context. This article provides a systematic and critical review of the scientific literature examining the impact of MALL on EFL learners' reading skills. The findings of the analysis indicate that mobile technologies enhance learners' motivation, expand their vocabulary, and promote learner autonomy. However, existing studies also highlight several drawbacks of mobile reading, including distraction, superficial reading, and increased cognitive load, which may hinder deep comprehension. Furthermore, comparative findings between mobile and traditional reading are inconsistent, reflecting the complexity of this research area. The literature review reveals that most existing studies are based on short-term outcomes, while the long-term effects of mobile reading and its underlying cognitive mechanisms remain underexplored. Additionally, there is a limited number of studies conducted in the context of developing countries. Therefore, the article emphasizes the multifaceted nature of mobile reading and suggests directions for future research.*

Keywords *MALL, reading skills, EFL learners, cognitive load, decoding, reading components*

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda (mall)mobil texnologiyalar asosida til o'rganishning ta'siri: adabiyotlar sharhi

Shahnoza Komilovna Sa'diyeva
shakhnozasadiyeva@gmail.com
Doktorant (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *So'nggi yillarda mobil texnologiyalarning jadal rivojlanishi til o'rganish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va mobil yordamida til o'rganish (Mobile-Assisted Language Learning – MALL) EFL (English as a Foreign Language) kontekstida muhim pedagogik yondashuv sifatida ham shakllandi. Ushbu maqola MALLning EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasiga ta'sirini ko'rsatuvchi ilmiy adabiyotlarni tizimli va tanqidiy tahlil qiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mobil texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, lug'at boyligini kengaytiradi va mustaqil o'rganishga imkoniyatlar yaratib beradi. Biroq, mavjud tadqiqotlar mobil o'qishning ayrim kamchiliklarini ham ko'rsatadi, jumladan diqqatning bo'linishi, yuzaki o'qish va kognitiv yuklamaning ortishi, bu esa chuqur tushunishga to'siq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mobil va an'anaviy o'qish o'rtasidagi taqqosiy natijalar bir xil*

emasligi ushbu sohaning murakkabligini ko'rsatadi. Adabiyotlar sharhi shuni aniqladiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli natijalarga asoslangan bo'lib, mobil o'qishning uzoq muddatli ta'siri hamda kognitiv mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida olib borilgan tadqiqotlar cheklangan. Shu sababli, maqola mobil o'qishning ko'p omilli tabiatini ta'kidlab, kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar taklif etadi.

Kalit so'zlar *MALL, o'qish ko'nikmasi, EFL talabalar, kognitiv yuklama (cognitive load), dekodlash, o'qish komponentlari*

Влияние мобильного обучения языку (mall) на развитие навыков чтения у изучающих английский язык как иностранный: обзор литературы

Садиева Шахноза Комиловна
shakhnozasadiyeva@gmail.com

*Базовый докторант,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В последние годы стремительное развитие мобильных технологий оказало значительное влияние на процесс изучения языков, и мобильное обучение языку (Mobile-Assisted Language Learning, MALL) сформировалось как важный педагогический подход в контексте EFL (English as a Foreign Language). Данная статья представляет систематический и критический анализ научной литературы, посвящённой влиянию MALL на навыки чтения у изучающих английский язык как иностранный. Результаты анализа показывают, что мобильные технологии повышают мотивацию обучающихся, расширяют их словарный запас и способствуют развитию автономного обучения. Однако существующие исследования также указывают на ряд недостатков мобильного чтения, включая рассеивание внимания, поверхностное чтение и увеличение когнитивной нагрузки, что может препятствовать глубокому пониманию текста. Кроме того, сравнительные результаты мобильного и традиционного чтения остаются неоднозначными, что подчёркивает сложность данной области исследования. Обзор литературы показал, что большинство существующих исследований основано на краткосрочных результатах, в то время как долгосрочное влияние мобильного чтения и его когнитивные механизмы остаются недостаточно изученными. Также наблюдается ограниченное количество исследований, проведённых в контексте развивающихся стран. В связи с этим статья подчёркивает многофакторный характер мобильного чтения и предлагает направления для будущих исследований.*

Ключевые слова *MALL, навыки чтения, студенты EFL, когнитивная нагрузка (cognitive load), декодирование, компоненты чтения*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish, yoshlar orasida kitob o'qishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalarning rivojlanishiga katta turtki berdi. Ushbu qarorda yoshlarning o'qish salohiyatini oshirish, kitob o'qish madaniyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu yondashuv nafaqat yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, balki ularning ma'naviy kamolotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globallashtirish sharoitida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qish kompetensiyasi asosiy tayanch ko'nikmalardan biri hisoblanadi. O'qish nafaqat axborotni qabul qilish vositasi balki, uni chuqur tahlil va talqin qilish, xulosa qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv omillardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'qish ko'nikmasining ham rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratib beryapti. Ayniqsa, Mobil vositalar orqali tili o'rganish – Mobile assisted language learning – MALL, talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga, o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, hamda individual o'rganish trayektorlarini aniqlashga va doimiy o'rganish muhitini yaratishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili yondashuviga asoslanib, mobil yordamida til o'rganishning (MALL) EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasiga ta'sirini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar tanlab olinib, ularning asosiy natijalari, o'xshash va farqli jihatlari solishtirildi. Ma'lumotlar Google Scholar va ResearchGate kabi ilmiy bazalardan yig'ildi. Tadqiqot uchun maqolalar "mobile-assisted language learning", "EFL reading", "reading comprehension", va "mobile learning" kabi kalit so'zlar asosida izlandi.

Maqolalarni tanlashda bir qator mezonlar qo'llanildi. Jumladan, faqat 2015-2025 yillar oralig'ida chop etilgan, EFL kontekstida mobil yordamida o'qish bilan bog'liq bo'lgan va ilmiy jurnallarda e'lon qilingan tadqiqotlar tanlab olindi. Shu bilan birga, mavzuga bevosita aloqador bo'lmagan yoki yetarli ilmiy asosga ega bo'lmagan maqolalar tahlildan chiqarib tashlandi.

Tanlab olingan adabiyotlar tematik tahlil usuli orqali o'rganildi. Tadqiqotlar asosiy yo'nalishlar bo'yicha guruhlandi, jumladan mobil o'qishning ijobiy ta'siri, kamchiliklari, hamda mobil va an'anaviy o'qish o'rtasidagi farqlar. Shuningdek, mavjud tadqiqotlar o'rtasidagi o'xshash va qarama-qarshi natijalar aniqlanib, tanqidiy tahlil qilindi.

Natija va Muhokama

Til o'rganishda o'qish ko'nikmasi markaziy o'rin egallaydi va u ko'plab lingvistik hamda kognitiv jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, o'qish oddiy dekodlash jarayoni emas, balki murakkab, interaktiv va ko'p bosqichli faoliyat sifatida qaraladi. Bu jarayonda o'quvchi matndagi til birliklarini tahlil qilish bilan birga, o'zining oldingi bilimlari, tajribasi va kognitiv strategiyalariga tayangan holda mazmunni anglaydi. (Carrell, Devine, Eskey, 1988).

O'qish jarayonini tushuntirishda eng keng qo'llaniladigan nazariyalardan biri interaktiv model hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra, o'qish ikki asosiy jarayon pastdan yuqoriga (bottom-up) va yuqoridan pastga (top-down) ishlov berish mexanizmlarining birlashuvi orqali amalga oshadi (Grabe, 2009) Bottom-up jarayon matndagi harflar, so'zlar va grammatik birliklarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, top-down jarayon o'quvchining oldingi bilimlari va taxminlari asosida matnni tushunishga yordam beradi. Ushbu ikki jarayonning uyg'unligi o'qish samaradorligini belgilaydi.

Chet tili ikkinchi til sifatida o'rganilayotganda (L2 reading) ushbu jarayon yanada murakkablashadi, chunki o'quvchilar hali tilni avtomatik darajada qayta ishlay olmaydi. Shu sababli, ular ko'proq diqqatni so'zlarni tanish va grammatik tuzilmani tushunishga qaratadi, bu esa mazmuni anglash uchun mavjud kognitiv resurslarning kamayishiga olib keladi (Koda, 2005; Gough, Tunmer, 1986). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dekodlash jarayonining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi o'qish tushunishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qish tushunishi bir nechta asosiy komponentlarga bog'liq bo'lib, ular orasida lug'at boyligi, so'zlarni tez va aniq tanish, sintaktik bilim va diskurs darajasida mazmuni anglash muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning birortasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, umumiy tushunish jarayoni cheklanadi. Shu nuqtai nazardan, o'qish ko'nikmasi integrativ tizim sifatida qaraladi, ya'ni u alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki ularning uyg'un ishlashidan iborat (Alderson, 2000).

Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar o'qish jarayonida metakognitiv strategiyalarning ahamiyatini ham ta'kidlaydi. O'quvchilar matnni tushunishda turli strategiyalardan masalan, skimming, scanning, inferensiya va monitoringdan foydalanadi. Ushbu strategiyalar o'qish jarayonini nazorat qilish va tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Metakognitiv xabardorlik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar o'qish jarayonini samaraliroq boshqaradi. Mobil yordamida til o'rganish nazariy jihatdan konstruktivistik va sotsial-interaktiv yondashuvlarga asoslanadi. Konstruktivizmga ko'ra, o'quvchilar bilimni faol ravishda quradi va o'rganish jarayonida faol ishtirok etadi. Mobil texnologiyalar ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlab, o'quvchilarga individual va moslashuvchan o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mobil qurilmalar orqali o'qish multimodal input (matn, audio, video) ni

taqdim etib, turli o'rganish uslublariga moslashadi (Ahmadi, Reza, 2020).

Sotsial-interaktiv yondashuv nuqtayi nazaridan esa mobil texnologiyalar o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqotni kuchaytiradi. Masalan, mobil ilovalar va ijtimoiy platformalar orqali o'quvchilar matnlar ustida birgalikda ishlashi, fikr almashishi va muhokama qilishi mumkin. Bu esa o'qish jarayonini yanada faol va mazmunli qiladi. Shu bilan birga, mobil o'qish jarayonini tushuntirishda kognitiv yuklama nazariyasi (cognitive load theory) ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quvchining ishchi xotirasi cheklangan bo'lib, ortiqcha vizual yoki multimediyaviy axborot kognitiv yuklamani oshirib, matnni chuqur tushunish va tahlil qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun, mobil ilovalarda matn joylashtirayotganda muvozanatni saqlash lozim.

EFL (English as a Foreign Language) kontekstida o'quvchilarning o'qish kompetensiyasi ko'plab murakkab omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Ya'ni, o'qish jarayoni faqatgina lingvistik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki kognitiv, affektiv va sotsiokultural omillar bilan bog'liq bo'lib ko'p qirrali jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, o'qishda matnni tushunish va uni chuqur anglash uchun ushbu omillarni tizimli ravishda ko'rib chiqish zarur.

Avvalo, lingvistik omillar o'qish kompetensiyasining asosiy poydevori hisoblanadi. Ayniqsa, so'z boyligi o'qish samaradorligining eng muhim prediktorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. O'quvchi matndagi so'zlarning katta qismini tushunmasa, umumiy mazmuni anglashda qiyinchilikka duch keladi. IZlanishlar shuni ko'rsatadiki, lug'at boyligi yetarli darajada bo'lmagan o'quvchilar matnni fragmentar tarzda qabul qiladi va bu esa matnni to'liq tushunishga to'sqinlik qiladi (Gilakjani, Sabouri, 2016). Lingvistik omillarning yana bir qismi bu grammatik bilimlar va sintaktik tuzilmalarni bilish ham muhim rol o'ynaydi, chunki murakkab gaplar mazmunini

tushunish uchun grammatik kompetensiya zarur bo'ladi.

Kognitiv omillar ham o'qish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishchi xotira o'quvchining matndagi axborotni vaqtincha saqlash va qayta ishlash imkoniyatini belgilaydi. Agar ishchi xotira yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, o'quvchi matnning oldingi qismlarini unutib qo'yishi va umumiy mazmuni bog'lashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuningdek, diqqat va axborotni qayta ishlash tezligi ham muhim omillar hisoblanadi. O'quvchi matnga diqqatini jamlay olmasa yoki tez-tez chalg'isa, o'qish samaradorligi pasayadi.

Metakognitiv omillar ham o'qish jarayonida muhim omillardan biri hisoblanadi. Metakognitsiya bu o'quvchining o'z o'rganish jarayonini o'zi nazorat qilishi va boshqara olishidir. O'quvchilar o'qish jarayonida turli strategiyalardan, masalan, skimming, scanning, inferensiya qilish va tushunishni monitoring qilish kabi usullardan foydalanadi. Ushbu strategiyalardan unumli foydalana oladigan o'quvchi matnni chuqurroq va aniqroq tushunadi. Strategik yondashuv yetishmagan hollarda o'qish jarayoni passiv va samarasiz bo'lib qoladi (Kukulska-Hulme, Shield, 2008).

Affektiv omillar, xususan motivatsiya va o'qishga bo'lgan munosabat ham o'qish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ko'proq o'qishga moyil bo'lib, ular qiyinchiliklarga qaramay o'qishni davom ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy munosabat va qiziqish o'qish faoliyatini barqaror qiladi va natijada o'qish ko'nikmasining rivojlanishiga yordam beradi (Grabe, Stoller, 2011). Shu bilan birga, o'quvchilarning oldingi bilimlari ham muhim omil hisoblanadi. O'quvchi matnda berilgan mavzu haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lsa, u yangi axborotni tezroq va samaraliroq qayta ishlay oladi. Agar mavzu mutlaqo notanish bo'lsa, tushunish darajasi pasayadi va bu holat ayniqsa madaniy jihatdan farqli matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Sotsiokultural omillar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Til o'rganish jarayoni ijtimoiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilarning ta'lim muhiti, o'qituvchining roli va o'qish materiallarining mosligi o'qish samaradorligiga ta'sir qiladi. Masalan, o'quvchiga mos va qiziqarli matnlar berilsa, uning o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

O'qish kompetensiyasi chet tili o'rganishning asosiy fundamentlaridan biri sifatida keng e'tirof etiladi hamda ilmiy akademik muvafaqqiyatda va umrbod ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili chet tili sifatida o'rganiladigan sharoitda o'qish talabalarga turli ilmiy va axborot manbalariga kirish imkonini beradigan muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. O'qish ko'nikmasi nafaqat talabalarga matnni tushunish va so'z boyligini oshirishga balki tanqidiy fikrlashga va umumiy til o'rganish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday bo'lsada, ko'plab EFL talabalari autentik materiallarni tushunishda so'z boyligi yetishmasligi, yetarlicha mavjud bilimlarning yo'qligi hamda samarali o'qish strategiyalarining yetishmasligi kabi qiyinchiliklarga duch keladilar. An'anaviy o'qish darslari ko'pincha o'qituvchi-markazli yondashuv va bosma materiallarga tayangan holda bo'lib bu esa talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi.

Bundan tashqari, MALL multimodal o'rganishni ta'minlaydi. Mobil ilovalar matn, audio, video va interaktiv elementlarni birlashtirgan holda taqdim etadi, bu esa turli o'rganish uslublariga mos keladi. Shu bilan birga, mobil qurilmalar orqali o'rganish o'quvchilarning real hayot bilan bog'liq kontekstlarda tilni qo'llashiga imkon yaratadi.

MALLning yana bir muhim xususiyati bu ubiquitous learning, ya'ni "har doim va har joyda o'rganish" imkoniyatidir (Kukulska-Hulme, 2012). Bu o'quvchilarni an'anaviy vaqt va makon cheklovlaridan ozod qiladi va

o'rganish jarayonini uzluksiz davom ettirishga yordam beradi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar MALLning EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Eng avvalo, mobil texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv va qiziqarli muhit o'quvchilarni faol o'qishga undaydi va o'rganish jarayonini yanada jozibador qiladi. Tadqiqotlar mobil qurilmalar orqali o'qish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishini ko'rsatadi (Huang, Lin, 2020).

MALL lug'at boyligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Mobil ilovalarda mavjud bo'lgan lug'at yordami, kontekstual tarjima va tezkor izohlar o'quvchilarga yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirish imkonini beradi (Valizadeh, 2022). Bu esa o'qish tushunishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mobil texnologiyalar learner autonomy ni rivojlantiradi. O'quvchilar o'z o'rganish jarayonini boshqarish, materiallarni tanlash va o'qish vaqtini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa mustaqil o'rganishni kuchaytiradi va o'quvchini faol subyektga aylantiradi (Hazaea, Alzubi, 2018).

Shuningdek, mobil ilovalar orqali o'qish ko'nikmasi umumiy ravishda yaxshilanishi ham kuzatilgan. Interaktiv mashqlar, tezkor feedback va gamifikatsiya elementlari o'quvchilarning o'qish jarayoniga faol jalb etilishiga yordam beradi (Nodeh, Arabmofrad, 2025).

Shu bilan birga, MALLning ayrim kamchiliklari ham mavjud bo'lib, ularni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Eng muhim muammolardan biri diqqatning bo'linishi bo'lib, mobil qurilmalar turli ilovalar, bildirishnomalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan to'la bo'lib, bu o'quvchining diqqatini o'qishdan chalg'itishi mumkin (Al-Jarf, 2022).

Ikkinchi muammo yuzaki o'qish, ya'ni mobil qurilmalarda uzun matnlarni chuqur tahlil qilib o'qish ancha noqulay hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobil qurilmalarda o'qigan o'quvchilar ko'pincha

matnni chuqur tahlil qilmaydi, balki tez ko'zdan kechiradi. (Yu, Zhou, Yang & Hu, 2022).

Bundan tashqari, kognitiv yuklamaning oshishi o'quvchining matnni to'liq anglab yetishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Multimediyaviy elementlarning haddan tashqari ko'pligi o'quvchining ishchi xotirasiga ortiqcha yuklama bo'ladi va natijada o'qish samaradorligi pasayadi (Chen, Hsu, 2021).

Texnologik cheklovlar ham mavjud bo'lib, u internetga bog'liqlilik, texnik muammolar o'rganish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, MALLni samarali qo'llash uchun pedagogik nazorat va muvozanat zarur.

Mobil va an'anaviy o'qish o'rtasidagi farqlar so'nggi yillarda keng tadqiq qilinmoqda. Tadqiqotlar natijalari bir xil emas, bu esa ushbu masalaning murakkabligini ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlar mobil o'qish samaraliroq ekanini ko'rsatadi, chunki u ko'proq imkoniyatlar lug'at yordami, interaktiv elementlar va tezkor feedback ni taqdim etadi. Bu o'quvchilarning o'qish jarayonini osonlashtiradi va ularni faolroq qiladi.

Biroq, boshqa tadqiqotlar an'anaviy o'qish, ayniqsa chuqur tushunish uchun samaraliroq ekanini ta'kidlaydi. Qog'ozda o'qish jarayonida o'quvchilar matn bilan ko'proq interaksiya qiladi, izohlar yozadi va strategiyalardan samaraliroq foydalanadi (Yu, Zhou, Yang, & Hu, 2022). Shu sababli, mobil va an'anaviy o'qish o'rtasidagi farqni "qaysi biri yaxshiroq" degan savol bilan emas, balki "qaysi holatda qaysi biri samaraliroq" degan nuqtai nazardan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

MALLning o'qish ko'nikmasiga ta'siri bir yoqlama emas, balki murakkab va ko'p omilli jarayondir. Bir tomondan, mobil texnologiyalar motivatsiya, lug'at boyligi va o'quvchining mustaqil o'rganishini oshirish orqali o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu natijalar MALLning o'quvchilarni faol o'rganishga jalb qilishdagi kuchli tomonini ko'rsatadi. Biroq, boshqa tomondan, mobil o'qish chuqur tushunish va kognitiv qayta ishlash

jarayonlariga har doim ham ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Yuzaki o'qish va diqqatning bo'linishi kabi muammolar MALLning samaradorligini cheklashi mumkin. Bu esa texnologiyaning o'zi emas, balki uni qanday qo'llash muhim ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqotlar natijalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar MALLning kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Turli o'quvchilar, turli darajalar va turli ta'lim muhitlarida mobil o'qishning ta'siri har xil bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, eng samarali yondashuv bu MALLni an'anaviy o'qish bilan integratsiya qilishdir. Bunday aralash yondashuv mobil texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanish bilan birga, an'anaviy o'qishning chuqur tushunishdagi ustunliklarini ham saqlab qoladi.

Mavjud adabiyotlar mobil yordamida til o'rganish (MALL) EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini keng yoritadi. Ko'plab tadqiqotlar mobil texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, lug'at boyligini rivojlantirishi va learner autonomy ni kuchaytirishini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim empirik ishlar mobil ilovalar orqali o'qish tushunishi yaxshilanishini ham ta'kidlaydi. Biroq, ushbu natijalar asosan qisqa muddatli tadqiqotlarga asoslangan bo'lib, MALLning uzoq muddatli ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan.

Bundan tashqari, mavjud tadqiqotlarning katta qismi o'qishning umumiy natijalariga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, mobil o'qishning samaradorligi, inferensiya qilish va kognitiv qayta ishlash jarayonlariga ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ayniqsa, mobil qurilmalarda o'qish jarayonida yuzaga keladigan diqqatning bo'linishi, yuzaki o'qish va kognitiv yuklama kabi omillar qanday qilib o'qish sifatiga ta'sir ko'rsatishi masalasi hali ham ochiq qolmoqda. Shuningdek, turli mobil platformalar (ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, MOOC tizimlari) o'rtasidagi samaradorlik farqlari yetarli darajada solishtirilmagan. Ko'plab tadqiqotlar mobil o'rganishni umumiy tushuncha sifatida ko'rib chiqadi, biroq har xil

texnologik vositalarning o'ziga xos pedagogik ta'siri chuqur tahlil qilinmagan.

Yana bir muhim jihat mavjud tadqiqotlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan bo'lib, rivojlanayotgan davlatlar, xususan O'zbekiston kabi EFL kontekstlarida MALLning o'qish ko'nikmasiga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa natijalarni umumlashtirish va boshqa kontekstlarga tatbiq etishda cheklovlar keltirib chiqaradi.

Mazkur tadqiqot mobil yordamida til o'rganishning EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasiga ta'sirini yanada chuqurroq tahlil qilish, ayniqsa uning kognitiv jihatlari va kontekstga bog'liqligini aniqlash hamda mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Xulosa

Mazkur adabiyotlar sharhi mobil yordamida til o'rganish (MALL) EFL o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mobil texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, lug'at boyligini kengaytiradi va learner autonomy ni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mobil ilovalar va platformalar orqali o'qish o'quvchilarning matn bilan faolroq ishlashiga va o'rganish jarayoniga ko'proq jalb etilishiga yordam beradi. Biroq, ushbu ijobiy jihatlardan bir qatorda, MALLning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, mobil qurilmalarda o'qish jarayonida diqqatning bo'linishi, yuzaki o'qish va kognitiv yuklamaning ortishi kabi muammolar kuzatiladi. Bu esa o'qish tushunishining chuqurligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, mobil va an'anaviy o'qish o'rtasidagi taqqosiy tadqiqotlar natijalari bir xil emasligi ushbu sohaning murakkab va ko'p omilli ekanini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ham ko'rsatdiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli natijalarga asoslangan bo'lib, mobil o'qishning uzoq muddatli ta'siri yetarli darajada

o'rganilmagan. Bundan tashqari, mobil o'qishning kognitiv mexanizmlari, xususan chuqur tushunish va strategik o'qish bilan bog'liq jihatlari hali ham to'liq yoritilmagan.

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim amaliyoti va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun bir qator muhim xulosalarni taqdim etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, o'qituvchilar mobil texnologiyalarni o'qish darslariga integratsiya qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Mobil vositalardan foydalanish faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki aniq pedagogik maqsadlar asosida tashkil etilishi kerak. Masalan, mobil ilovalar lug'atni rivojlantirish, o'qish strategiyalarini mustahkamlash va o'quvchilarning mustaqil ishlashini qo'llab-quvvatlash uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilarga mobil qurilmalar orqali samarali o'qish strategiyalarini o'rgatishi zarur. Bu o'quvchilarga yuzaki o'qishdan qochish va matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, diqqatni boshqarish va chalg'ituvchi omillarni

kamaytirish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhimdir.

O'quv materiallarini ishlab chiqishda kognitiv yuklama nazariyasini hisobga olish zarur. Mobil ilovalarda ortiqcha multimediyaviy elementlardan foydalanish o'qish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, materiallar sodda, aniq va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun bir nechta yo'nalishlar taklif etiladi. Avvalo, mobil o'qishning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish zarur. Bundan tashqari, turli mobil platformalar va ilovalar o'rtasidagi farqlarni chuqurroq tahlil qilish ham muhimdir. Shuningdek, mobil o'qishning kognitiv jihatlari, xususan diqqat, xotira va chuqur tushunish jarayonlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida, jumladan O'zbekiston sharoitida MALLning samaradorligini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Bu nafaqat global ilmiy adabiyotlarni boyitadi, balki mahalliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

References:

1. Ahmadi, M. R., & Reza, M. (2020). The effects of mobile-assisted language learning on EFL learners' reading comprehension. *Journal of Language Teaching and Research*, 11(2), 123–135.
2. Alderson, J. C. (2000). *Assessing reading*. Cambridge University Press.
3. Al-Jarf, R. (2022). A self-systematic review of mobile apps for developing multiple language skills in EFL. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 17(5), 4–19.
4. Carrell, P. L., Devine, J., & Eskey, D. E. (1988). *Interactive approaches to second language reading*. Cambridge University Press.
5. Chen, C. M., & Hsu, S. H. (2021). Enhancing L2 reading comprehension through mobile-assisted language learning. *Computer Assisted Language Learning*, 34(5–6), 1–20.
6. Gilakjani, A. P., & Sabouri, N. B. (2016). A study of factors affecting EFL learners' reading comprehension skill and the strategies for improvement. *International Journal of English Linguistics*, 6(5), 180–189.
7. Gough, P. B., & Tunmer, W. E. (1986). Decoding, reading, and reading disability. *Remedial and Special Education*, 7(1), 6–10.
8. Grabe, W. (2009). *Reading in a second language: Moving from theory to practice*. Cambridge University Press.
9. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). *Teaching and researching reading* (2nd ed.). Routledge.

10. Hazaea, A. N., & Alzubi, A. A. (2018). Learner autonomy in MALL.
11. Hoover, W. A., & Gough, P. B. (1990). The simple view of reading. *Reading and Writing: An Interdisciplinary Journal*, 2(2), 127–160.
12. Huang, Y. M., & Lin, Y. T. (2020). Developing EFL learners' reading comprehension through a smartphone-assisted reading program. *Educational Technology Research and Development*, 68(2), 1–15.
13. Klimova, B., & Zamborova, K. (2020). Use of mobile applications in developing reading comprehension in second language acquisition: A review study. *Education Sciences*, 10(12), 1–11.
14. Koda, K. (2005). *Insights into second language reading: A cross-linguistic approach*. Cambridge University Press.
15. Kukulska-Hulme, A. (2012). Mobile-assisted language learning: A review of the literature. *Open Learning*, 27(3), 221–235.
16. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
17. Lin, C. C., & Yu, Y. C. (2017). Effects of mobile-assisted reading on EFL learners' comprehension. *Educational Technology & Society*, 20(3), 1–12.
18. Nodeh, S., & Arabmofrad, A. (2025). *Mobile apps and reading comprehension*.
19. Valizadeh, M. (2022). *Mobile assisted reading and vocabulary*.
20. Yu, J., Zhou, X., Yang, X., & Hu, J. (2022). *Mobile-assisted or paper-based reading: The influence of reading medium on EFL learners' comprehension*.